Choriyeva Surayyo Choriyevna, To'xtayeva Muslima Allayor qizi	
Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda baynalminalchilik tizimini takomillashtirish	1829
Nasiba Djumanioyozova Bekmamatovna	
Pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni	1833
Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna	
Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir	1836
D. Teshaboyev, Z. Boymatova	
Eshitishda nuqsoni bor bo'lgan o'quvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish samaradorligi	1839
Boymirzayeva Madina Ilhomjon qizi	
Elektrodinamika bo'limini o'qitishda zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-metodik tahlili	1842
Abdullayev Botirxon Ismoilovich	
Bolalar adabiyoti ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish masalasida tushunchalar tahlili pedagogik muammo sifatida	1846
Abdullayeva Moxidilxon Dilshodbek qizi	
Biologiya ta'limida konseptual modelni qo'llash va uning samaradorligini baholash	1850
Abdurasulova Gulruh Xabibullaevna	
Dizatriyal bolalarning ovoz va nafasni rivojlanganlik holatini eksperimental o'rganish natijalari	1854
Abidova Nilufar Zakirovna, Shaxodjayeva Nilufar Raimjonovna	
Kasbiy etika va deontologiya: bo'lajak shifokorlar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar	1857
Ahmedova Nigora Dadahonovna	
Tabiiy fanlar va matematika integratsiyasi orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirish metodikasi	1862
Ashurova Gulhayo Nurali qizi, Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi	
Inklyuziv ta'lim tizimida imkoniyat cheklangan o'quvchilarni o'qitishga lingvopedagogik yondashuv	1865
Asranbayeva Munojot	
Chet tili mashg'ulotlarida yozma nutqni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	1868
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	



Ekologik muhit asosida bolalar psixo-fiziologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish.....	1872
Axmedjonova Nozigul Zaripovna	
O'smir yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish	1876
Baxrillayeva Moxichexra Raxmatillayevna	
Xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari	1880
Bayzakova Malika	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	1884
Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna, Saydinova Barno	
O'yin texnologiyalari asosida matematik bilimlarni takomillashtirish va uning ahamiyati.....	1889
Botirova M. B.	
Talabalar orasida ko'p uchraydigan akademik muvaffaqiyatdan qo'rqish va uning yechimlari.....	1892
Celal Algan	
Kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorgarlik izlanishlari.....	1896
D. G'. Akramova	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	1899
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li	
Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri talqini	1905
Dostanova Kamola Alisher qizi	
Dual ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar	1909
Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna	
The Sociolinguistic Effectiveness of Using Authentic Texts in the Training of Prospective English Language Teachers	1912
Elyor A Pazilov	
Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari	1916
Ermatova Gullola Ziyod qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	1919
Eshmo'minova Sitara Xayrullo qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishda tizimli-vaziyatli yondashuvning nazariy asoslari	1922
Gapparova Zilola Neymat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	1926
Hayitboyeva Zarina Otanazarovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish usullari.....	1930
Hojimamatova Jamila, Ahmedova Umidaxon Yodgorjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish	1933
Inobatxon Toshpo'latova	
4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Qarg'a va paxta" hikoyasi orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni	1937
Jo'liboyeva Mahliyo Hamro qizi, Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi	
Mantiqiy tafakkur tushunchasi mohiyati.....	1941
Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich	
Developing Tolerance Skills in Future Teachers During their Professional Training.....	1945
Joldasbaeva Arzigul Muratbaevna	
O'quvchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	1948
Jumanov Erdavlet Sharifjon o'g'li	
Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
Jumayev Yunus Rashidovich	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
Karimov Ilhom Normamatovich	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
Karimov Ravshanbek Rizomatovich	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
Kayumova Dilnoza Patxulla qizi	

Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi.....	1978
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili.....	1982
Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi	
Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlarini.....	1986
Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati.....	1990
Murodova Farangis G'anisherovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari.....	1994
Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli.....	1997
Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li	
Ingliz tilini o'rgatishda interrogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi.....	2003
Normamatova Dilfuza Turdikulovna	
Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati.....	2008
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish.....	2011
Romanova Lola Karimbayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish.....	2014
Rustamova Gulmira Yoryigit qizi	
Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari.....	2018
Sadinov Oybek Ziyot o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish.....	2021
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish.....	2024
Shermuxevedova Dilnozaxon Raximjanovna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi.....	2028
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi.....	2031
Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi.....	2034
Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich	
Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish.....	2039
Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi	
Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish.....	2043
Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi	
Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi.....	2046
Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna	
Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash.....	2050
Umarov Abdurasul Abduraximovich	
Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	2058
Umarov Xusanboy Rustamovich	
Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences.....	2062
Usmanova Nargiza Kudratullayevna	
Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlarini (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil).....	2065
Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich	
Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari.....	2069
Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li	
Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli.....	2073
Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li	
Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	2080
Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna	



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoiri Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yuldasheva Dilshoda To'liqinova	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'liqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	



GLOBALLASHUV SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Karimov Ravshanbek Rizomatovich

v.b.dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0007-9217-2289

Annotatsiya: Ijtimoiy-pedagogik kompetentlik konsepsiyasining mohiyatini aniqlash kasbiy kompetensiyani baholash mezonlarini ishlab chiqishga imkon beradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy harakatchanlik, kasbiy sohada madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va ta'lim makonining integratsiyalashuvi sharoitida ijtimoiy o'qituvchi faoliyatining eng muhim jihatlari aks ettiruvchi fazilatlarini belgilashga xizmat qiladi. Maqolada globallashuv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishga doir masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: imkoniyat, ta'lim, metod, tuzilma, kompetentlik, qobiliyat, moslashuvchanlik, muvaffaqiyat.

Abstract: Defining the essence of the concept of socio-pedagogical competence enables the development of criteria for evaluating professional competence and helps identify the qualities that most accurately represent the essential aspects of a social educator's activity in the context of socio-economic mobility, the expansion of intercultural communication in the professional environment, and the integration of the educational space. The article discusses issues related to enhancing the socio-pedagogical competence of future teachers within the framework of globalization.

Key words: opportunity, education, method, structure, competence, ability, adaptability, success.

Аннотация: Определение сущности концепции социально-педагогической компетентности позволяет выработать критерии оценки профессиональной компетентности, а также выявить качества, наиболее полно отражающие основные аспекты деятельности социального педагога в условиях социально-экономической мобильности, расширения межкультурных связей в профессиональной сфере и интеграции образовательного пространства. В статье раскрыты вопросы развития социально-педагогической компетентности будущих педагогов в условиях глобализации.

Ключевые слова: возможность, образование, метод, структура, компетентность, способность, адаптивность, успех.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida inson har qanday vaziyatda muvaffaqiyatli va samarali faoliyat yuritishga yordam beradigan ichki tayanchlarini topish zarurati bilan tobora ko'proq duch kelmoqda. Qiyin hayotiy vaziyatlarga ro'baro' bo'lgan shaxs ularni faol ravishda o'zgartirishga intiladi va bu jarayon uning ichki dunyosida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bunday o'zgarishlar esa ko'pincha o'ziga ishonchsizlik, ruhiy beqarorlik va xatti-harakatlarning tartibsizligi bilan kechuvchi noaniqlik holatiga olib keladi. Ichki holatini beqarorlik, bo'shliq yoki nochorlik sifatida his qilgan inson o'zini ichki muammolar girdobida topadi.

Umumiy ijtimoiy, mintaqaviy va mahalliy sharoitlar ko'p jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning o'ziga xos farqlari ham mavjud. Bu farqlarni inkor etish yoki ularga befarq yondashish mavjud usullarni yangi sharoitlarda avtomatik qo'llashda muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli ish uslubini tanlashdan avval jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish, aniqlangan faktlarning ishonchliligini tahlil qilish, chiqarilayotgan xulosa va prognozlarini tekshirish zarur. Bundan tashqari, mahalliy sharoitlarni baholash, jamiyatning ijtimoiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, shuningdek, o'qituvchining shaxsiy imkoniyatlari ham uning pedagogik ta'sirining mazmuni va metodologiyasini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompetentlik tuzilmasida ijtimoiy kompetentlik alohida o'rin egallaydi, chunki u insonning turli hayotiy sohalarda samarali ijtimoiy hamkorlik qilishi, ijtimoiy vaziyatlarga moslasha olishi, shuningdek, shaxsiy va kasbiy rivojiga oid qobiliyatlarini ifodalaydi. Ijtimoiy kompetentlik muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini boshqara olish, o'quv faoliyatini muntazam takomillashtirib borish, faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish, tengdoshlar bilan ijodiy hamkorlik qilishi, irodaviy sifatlarni rivojlantirish, ishchanlik qobiliyatini kuchaytirish, kreativlikni shakllantirish, salbiy odatlarni bartaraf etish, o'ziga ob'yektiv baho berish, ijobiy sifatlarni o'zlashtirish uchun zarur choralarni topish va amalda qo'llay olish kabi ko'nikma va sifatlarni qamrab oladi. Ushbu jarayon o'qituvchining o'z ustida muntazam ishlashi, shaxsiy rivojlanish yo'lida qat'iyatli harakat qilishi va kasbiy faoliyatini takomillashtirishga intilishini ifodalaydi.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy malakalar majmui sifatida insonning jamiyatdagi normalar va qoidalarni adekvat bajarishiga imkon yaratadi. Shaxs o'z "meni"ni anglay boshlaydigan ilk bolalik davrlaridan boshlab ota-onasining ko'magida ushbu normalar va qoidalarni egallay boshlaydi. Ma'lumki, avvalgi ta'lim tizimida asosan akademik bilimlarni berishga urg'u berilgan bo'lsa, hozirgi kunda o'qituvchilarning chuqur nazariy bilimga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ularning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda ^[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari nisbatan yangi ilmiy muammo bo'lib, kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish masalalari A. Jumayev ^[2], ijtimoiy pedagogika muammolari Z. Saliyeva ^[6], M. Kuronov va Z. Kurbaniyazova^[4]lar tomonidan tadqiq etilgan. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash pedagogikasi o'qituvchiga o'zini ijobiy rivojlantirish, jamiyatga moslasha olish va kasbiy shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga yordam beradigan bir qator usullarni o'z ichiga oladi. Bunday ijtimoiy-pedagogik usullarni turli tamoyillar asosida guruhlash mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida qo'llaniladigan ushbu usullarni tasniflashda biz quyidagi tamoyillarga tayandik:

- aniq tarixiy yondashuv tamoyili – vaziyat, mavjud imkoniyatlar va kuchlarni chuqur tahlil qilish asosida ustuvor yo'nalishlarni belgilash;
- kasbiy tayyorgarlik jarayonida ta'lim va amaliy faoliyat o'rtasidagi uyg'unlik tamoyili – og'zaki va amaliy usullarni oqilona uyg'unlashtirish;
- kollektiv ijodkorlik tamoyili – jarayonga maktab o'qituvchilari, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ijtimoiy xodimlar, ota-onalar va jamoatchilikni manfaatdor tarzda jalb qilish, bu esa faoliyat mazmuni, usullarining xilma-xilligini ta'minlaydi va har bir ishtirokchining jarayonga ta'sir o'tkazish imkonini kengaytiradi;
- uzluksizlik tamoyili – o'qituvchilar faoliyatini boshqa ta'lim va ijtimoiy muassasalar, tashkilotlar bilan muvofiqlashtirish, ularning sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish, takrorlanish va energiya isrofgarchiligini bartaraf etish;
- murakkablik tamoyili – har bir faoliyat turida vazifaning ko'p qirrali jihatlarini ta'minlash.

Zamonaviy o'qituvchilar an'anaviy va innovatsion ish usullaridan foydalanadilar; yangi usullar, odatda, zamon talablari va hayotning o'zgargan haqiqatlari bilan bog'liq. Bugungi kunda ular,

- *birinchidan*, ta'lim muassasasi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni aks ettiradi;
- *ikkinchidan*, tarbiyaviy faoliyatning demokratik, hamkorlikka asoslangan mohiyatini namoyon etadi;
- *uchinchidan*, faollikni tashkil etishning noan'anaviy shakllariga – davra suhbatlari, ota-onalar uchun dam olish xonalari va boshqa shakllarga ehtiyojni kuchaytiradi.

Bo'lajak o'qituvchiga o'z taqdirining egasi bo'lishga ko'mak beradigan, o'zini o'zi boshqarish jarayonlarini rag'batlantiradigan o'z-o'ziga yordam va o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni ustuvor ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotni yuqori saviyada tashkil eta oladigan, o'quvchilarni tarbiyalashda izchil yuqori natijalarga erishayotgan o'qituvchini kasbiy kompetentli deb ta'riflash mumkin ^[1].

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish – ijodiy individuallikni shakllantirish, pedagogik yangiliklarga ochiqlik, o'zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyatini rivojlantirish demakdir. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti bevosita o'qituvchining kasbiy darajasiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'qituvchining malakasi, kasbiy mahorati, ya'ni uning kasbiy kompetentligini oshirishni



talab qiladi. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi – shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi hamda istiqboldagi ehtiyojlarini qondira oladigan, ijtimoiy moslashishga, mehnat faoliyatini boshlashga, o'z-o'zini tarbiyalash va takomillashtirishga qodir bo'lgan barkamol shaxsni tayyorlashdir. O'z faoliyati natijalarini oldindan ko'ra oladigan, ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtira oladigan, mustaqil fikr yurita oladigan o'qituvchi belgilangan maqsadlarga erishishning muhim omilidir.

“Ilmiy bilimlar taraqqiyotining tarixiy jarayonida bunday tafakkur avvalroq, birinchi bosqichda, ilmiy tadqiqotning rivojlanish bosqichida vujudga keladi”^[1]. Shu bois bugungi kunda malakali, ijodkor, raqobatbardosh, jadal o'zgarayotgan dunyoda insonni tarbiyalay oladigan o'qituvchi shaxsiga bo'lgan talab keskin oshgan. O'qituvchi uchun yana bir muhim xususiyat – bu o'zining ijodiy faoliyatini va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish qobiliyatidir. Ta'lim tizimida bolalarga faqat ma'lum bir fan bo'yicha bilim berish emas, balki ularning tafakkurini kengaytirishga, bilimga qiziqishini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. O'qituvchining roli – bolalar faoliyatining tabiiy turlarini to'g'ri tashkil etish va ushbu faoliyatdagi munosabatlar tizimini pedagogik jihatdan to'g'ri boshqarishdir.

Shu sababli o'qituvchining ijtimoiy-pedagogik kompetentligi kasbiy mahorat (maxsus, uslubiy, ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlik), ijodkorlik (munosabatlar ijodiyoti, o'quv jarayonini samarali tashkil etish, vositalar va metodlardan oqilona foydalanish) hamda badiiylik (aktyorlik va notiqlik mahorati)ning uyg'unlashgan shaklidir. Bugungi kunda oddiy bilimlar yig'indisi bilan malakali mutaxassisni shakllantirish mushkul bo'lib, o'qituvchi hozirgi avlodga ta'lim berishda yuksak mas'uliyatni his qilishi zarur. Metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetentlik tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud: moslashuvchan, faoliyatga asoslangan, bilimga asoslangan, integrativ, o'z-o'zini tashkil etish va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy manbalar tahlili ushbu masalaning yetarli darajada chuqur o'rganilmaganini ko'rsatadi:

- o'qituvchining ijtimoiy-kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi to'liq ishlab chiqilmagan;
- mazkur hodisaning aniq ta'rifi mavjud emas;
- uning tarkibiy tuzilishi hanuzgacha aniqlik kiritilmagan holda yoritilgan;
- bitiruvchilarning kompetentligini baholash mezonlari esa amaliyotga joriy qilinmagan.

Bu esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ijtimoiy soha mutaxassisining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning optimal mexanizmlarini yaratishni murakkablashtiradi. Kompetentlik odatda aqliy fazilatlar majmuasi, shaxsning mustaqil va mas'uliyatli faoliyat yurita olishiga imkon beruvchi ruhiy holat hamda muayyan mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. A.K.Markova kompetensiyaning quyidagi turlarini beradi:

- 1) maxsus kompetensiya – kasbiy faoliyatni yuqori darajada egallash va o'zining keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;
- 2) ijtimoiy kompetensiya – jamoaviy yoki kooperativ kasbiy faoliyatni tashkil etish, hamkorlikni rivojlantirish, kasbga xos muloqot usullarini egallash;
- 3) shaxsiy kompetensiya – shaxsiy o'zini namoyon etish, o'zini rivojlantirish usullari hamda professional deformatsiyaga qarshi turish vositalarini egallash;
- 4) individual kompetensiya – kasbiy o'sishga tayyorlik, individuallikni rivojlantirish, vaqtni oqilona taqsimlash, kasbiy qarishga qarshilik ko'rsatish hamda o'z ishini samarali tashkil etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi^[5].

Kompetentlikni rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida ijtimoiylashtirish ko'rsatiladi. Ijtimoiy soha kasblaridagi kompetentlik (bu kasblar umumiy kasblarning qariyb 55 foizini tashkil qiladi) shaxsning nafaqat tegishli soha bo'yicha to'liq bilimga egaligini va muammolarni samarali hal eta olish qobiliyatini, balki insonlar bilan o'zaro ta'sir jarayonida ongli sub'yekt sifatida shakllanganligini ham anglatadi. M.A.Xolodnaya kompetentlikni inson faoliyatining yetakchi shaklini tavsiflovchi holat deb hisoblaydi. Unga ko'ra, kompetentlik “ma'lum bir fan doirasida bilimlarni tashkil etishning maxsus shakli” bo'lib, “tegishli fan ixtisosligi bo'yicha chuqur amaliyot va o'qitish jarayonining mahsuli”dir^[7]. Shu sababli ijtimoiy soha mutaxassislarini tayyorlashda chuqurlashtirilgan o'qitish alohida ahamiyatga ega.

Natijada malakali mutaxassislar umumlashtirilgan kategorik bilimlarga tayanadi, mavjud bilimlarini tizimli tarzda qo'llaydi va intellektual faoliyatini boshqarib boradi. Ular muhim va nomaqbul ma'lumotlarni tezda farqlay oladi, fikrlash jarayonining qanday kechishini nazorat qiladi. Hozirgi kungacha mahalliy kasbiy pedagogikada “kompetentlik” atamasi to'liq shakllanmagan bo'lib, ko'pincha mutaxassisning malakasi yoki kasbiy mahorati darajasini intuitiv tarzda ifodalash uchun qo'llanadi.

Buning birinchi sababi shundaki, kompetentlik an'anaviy "bilim–ko'nikma–malaka" triadasining mohiyatini birlashtirib, ularning o'rtasida bog'lovchi bo'lib xizmat qiladi. Keng ma'noda kompetentlik fan bo'yicha chuqur bilim yoki mukammal o'zlashtirilgan malakani bildiradi.

Ikkinchi sababi, kompetentlik bitiruvchini tayyorlash darajasini real baholash uchun mos ko'rsatkich hisoblanadi. Mukammal mutaxassisni real sharoitda tayyorlash ideal maqsad bo'lsa, kompetentlik esa yanada amaliy va erishiladigan maqsaddir. Bu ikki tushuncha o'rtasida tabiiy farq mavjud:

- kompetentlik – vazifani adekvat bajarish darajasidir;
- mukammallik esa eng yuqori natijadir, shu bois ular bevosita solishtirilmaydi.

Shaxs boshqa odamlarning natijalariga emas, balki o'z ishida talab qilinadigan darajaga nisbatan kompetent yoki nokompetent bo'ladi.

Uchinchidan, malakali mutaxassis tanqidiy fikrlashga, eng maqbul yechimni tanlash, noto'g'ri variantlarni asosli ravishda rad etish hamda samarali bo'lmagan yechimlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, kompetentlik shaxsning bilimlarni muntazam yangilab borishi, yangi ma'lumotlar bilan boyishi va kasbiy vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

Beshinchidan, kompetentlik mazmuniy (bilim) va jarayon (mahorat) komponentlarini o'z ichiga oladi. Shaxs muammoning mohiyatini anglay olishi, uni amaliy hal qilish usuliga ega bo'lishi va vaziyatga mos usulni tanlay olishi lozim. Usulning o'zgaruvchanligi hamda tanqidiy fikrlashning harakatchanligi kompetentlikning muhim belgisidir.

Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish uchun iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning yangi shakllarini o'zlashtirish, keng umumiy madaniy bilimlarni bir nechta fanlarni chuqur anglash qobiliyati bilan uyg'unlashtira olish zarur. Umumiy madaniy daraja uzluksiz ta'limga o'tishning asosiy omili bo'lib, ta'limga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi va umrbod ta'lim uchun zarur zamin yaratadi. Kasbiy takomillashuvning yana bir muhim jihati – turli vaziyatlarda yo'l topa olish, guruh ishini tashkil etish va murakkab holatlarda optimal yechimni topish ko'nikmasidir. Talabalar o'qish jarayonida ijtimoiy hamda kasbiy faoliyatning turli shakllarida ishtirok etgan sari ularning kompetentlik darajasi oshadi.

Ijtimoiy-pedagogik kompetentlik mohiyatining aniqlanishi kasbiy kompetensiyani baholash mezonlarini shakllantirish imkonini beradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchanlik, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va ta'lim makonining integratsiyalashuvi sharoitida ijtimoiy o'qituvchi faoliyatining asosiy sifatlarini belgilashga yordam beradi. Bular quyidagilar: kasbiy ijtimoiy-pedagogik faoliyatga oid nazariy bilimlar majmuining mavjudligi; ijtimoiy-pedagogik muloqot vositalarini amalda qo'llay bilish; yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha olish va bag'rikenglikka ega bo'lish; ijtimoiy va pedagogik qaror qabul qilishda kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyati; zamonaviy pedagogik mahorat hamda ijtimoiy ta'limning psixologik-pedagogik asoslarini puxta bilish.

XULOSA

Kasbiy kompetentlik mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Uning shakllanishining asosi bo'lib xizmat qiladigan ijtimoiy-pedagogik kompetensiya esa keng ma'noda pedagogik malakaga ega bo'lgan, kasbiy mahorati bilan ajralib turadigan shaxsning intellektual qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini asosida shakllanuvchi sifat sifatida talqin etiladi. Mazkur kompetensiya ijtimoiy o'qituvchini o'z sohasi bo'yicha malakali mutaxassis sifatida baholash imkonini beradi.

Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish shaxs va faoliyatning tizimli xususiyati sifatida kompetensiyalar majmuini qamrab oladi hamda kasbiy funksiyalarni samarali bajarishga yo'naltirilgan texnikalar va amaliy harakatlar (ko'nikmalar) yig'indisidan iborat kasbiy kompetentliklar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arakcheyeva Z. V. Мышление i organizatsiya uchebnoy deyatelnosti shkolnikov. Problemy sovremennoy nauki: sbornik nauchnykh trudov, vypusk 13. – Stavropol: Logos, 2014. – 168 s.
2. Jumayev A. Kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish. Uzluksiz ta'lim, №6, 2006, B. 79–83.
3. Kamolova Sh. U., Amonxonova Ya. O'qituvchining kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning asosiy omili sifatida. Obrazovaniye i innovatsionniye issledovaniya, ISSN 2181-1717 (E), 2023, №2.
4. Kuronov M. K., Kurbaniyazova Z. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent, 2003. – 48 b.
5. Markova A. K. Psixologiya professionalizma. – Moskva: Znaniye, 1996. – 312 s.
6. Saliyeva Z. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Adabiyot uchkunlari, 2019. – 114 b.
7. Xolodnaya M. A. Kognitivniye stili: O prirode individualnogo uma. Ucheb. posobiye.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.